Abstract. This article provides a systematic and comparative legal analysis of the constitutional texts of 129 countries from the perspective of the distribution of powers between the President and the Government. The geographical scope of the study covers the continents of Europe, Asia, North and South America, Africa, and Oceania, and only states with a republican form of government with a written (codified) constitution were included in the selection. As a methodological basis, methods of direct descriptive analysis of constitutional texts, percentage distribution and determination of correlations between the established criteria were used. Global experience is compared with the norms of the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the specifics of the national model of public administration are revealed. At the end of the study, the constitutional and legal criteria allowing for the systematic classification of the form of government were clarified, and relevant conclusions were formulated.

Keywords: President–Government Balance, form of government, executive power, the institution of the Prime Minister, distribution of powers, formation of the government, resignation of the government, vote of no confidence

Kirish

Ijro hokimiyatining konstitutsiyaviy tuzilishi, xususan, Prezident va Hukumat o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti davlat-huquqiy fanlar doirasida tinimsiz o'rganiladigan va keng ilmiy muhokamalarga sabab bo'ladigan masalalardan hisoblanib, dolzarbli oxirgi chorak asrda yanada ortdi. Zero, 2000-yillardan boshlab ko'plab davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar orqali ijro hokimiyati tizimi takomillashtirilmoqda. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat hokimiyatining tuzilishi va faoliyati asoslarini takomillashtirish borasida muhim qadam bo'lgan. Mamlakatimizdagi 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotning ko'lami va mazmuni yuzasidan I. Xamedovning ta'kidlashicha, qayta ko'rib chiqilgan Konstitutsiya xalq tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan birinchi asosiy qonundir (Khamedov, 2024, p. 74). S. Gulyamovning (2025, p. 90) qayd etishicha, asosiy qonun moddalari soni 128 tadan 155 taga oshgan, mazmunining 65 foizi yangilangan bo'lib, "davlat – jamiyat – inson" paradigmasidan "inson – jamiyat – davlat" paradigmasiga o'tgan.

Ushbu maqola uchun amalga oshirilgan tahlil 129 ta davlat konstitutsiyasini umumiy metodologik doirada tizimli taqqoslashga qaratilgan bo'lib, geografik jihatdan Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Okeaniya davlatlarini qamrab oladi. Tahlilga faqat yozma (kodifikatsiyalangan) konstitutsiyaga ega respublika shaklidagi davlatlar kiritilgan. Tahlil uchun Prezident va Hukumat munosabatlariga bevosita taalluqli quyidagi mezonlar: davlat boshlig'ining saylanish tartibi va vakolat muddati, uning vakolatlari doirasi, Hukumat tarkibini shakllantirish va iste'fosida Prezident ishtiroki, Bosh vazir instituti, ishonchsizlik votumi va Hukumatning hisobdorlik tizimi belgilandi. Metodologiya uchta usulga: matnlarning bevosita tahlili, foizli taqsimot va mezonlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar tahliliga asoslangan. Shu o'rinda U. Partlett (2018, p. 120) qayd etgan muhim metodologik tamoyilga

e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, konstitutsiya matnidagi qoidalar alohida-alohida emas, balki o'zaro "bog'liqlik effekti"ni hisobga olgan holda o'rganilishi zarur. Tahlilning ilmiy-nazariy asosini J. Sartorining (1997, p. 203) konstitutsiyaviy muhandislik nazariyasi tashkil etadi, uning fikricha, boshqaruv tizimining samaradorligi vakolatlar muvozanatining ta'minlanganligiga bog'liq.

Asosiy qism

Qayd etilganlarni inobatga olib, tahlil natijalarini tematik bloklarga taqsimlagan holda ko'rib chiqsak.

Birinchi masala – davlat boshlig'ini saylash tartibi va vakolat muddati. 129 ta davlatning 88 tasida (68,2 foiz) Prezidentni bevosita xalq, 37 ta davlatda (28,6 foiz) parlament saylaydi, bunda bir qator davlatlarda (Albaniya, Vengriya, Gretsiya va b.) parlamentning malakali ko'pchilik ovozi talab qilinadi. 4 ta davlatda (3,1 foiz) maxsus elektoral kollegiya tizimi: AQSHda shtatlar bo'yicha saylovchilar, Germaniyada Bundestag a'zolari va teng ulushdagi land vakillaridan iborat Federal konvensiya, Italiyada parlament qo'shma majlisi va mintaqa delegatlari, Gruziyada parlament va mahalliy kengashlar vakillaridan iborat 300 nafar a'zoli kollegiya qo'llanadi.

Vakolat muddatiga kelsak, 5-yillik davr global standartga aylangan (71 ta davlat, 55 foiz), 4-yillik muddat 21 ta davlatda (16,3 foiz), asosan Lotin Amerikasida tarqalgan, 6-yillik muddat 9 ta davlatda (7 foiz), 7-yillik muddat 7 ta davlatda (5,4 foiz) belgilangan. Diqqatga sazovor joyi shuki, 7-yillik muddat belgilangan davlatlarning aksariyati Markaziy Osiyoda joylashgan (Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston). 78 ta davlatda (60,5 foiz) 2 muddat cheklovi belgilangan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlarda ushbu masalada uchta asosiy yondashuv aniqlandi. M. Shugart va J. Keri bevosita saylovning ijro hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashdagi muhim rolga alohida e'tibor qaratgan (Shugart & Carey, 1992, p. 23). U. Partlett (2018, p. 118) esa tadqiqotini postsovet davlatlari doirasida chuqurlashtirib, bevosita saylov nafaqat legitimlik, balki keng vakolatlarning asosi sifatida ham xizmat qilishini ta'kidlagan.

U. Partlettning bu nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlamaymiz, sababi yuqorida qayd etilgan 88 ta davlatning kamida 15 tasida (Islandiya, Irlandiya, Sloveniya, Finlandiya va b.) Prezident asosan rasmiy-tantanavor vazifalarni (qonunlarni imzolash, elchilarni qabul qilish, davlat mukofotlari) bajaradi, haqiqiy ijro hokimiyati esa Bosh vazir qo'lida, ya'ni Prezident nominal mavqega ega. Demak, bevosita saylovning o'zi keng vakolatlarni ta'minlamaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 106-moddasida (Republic of Uzbekistan, 2023) Prezident bevosita xalq tomonidan yetti yil muddatga saylanishi va ketma-ket ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning avvalgi tahririda Prezident vakolat muddati 5-yil deb belgilangan bo'lsa-da, muddat cheklovi instituti har ikkala tahrirda ham mavjudligi O'zbekiston konstitutsiyaviy tizimining barqarorlik elementidir.

Ikkinchi masala – Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari doirasi. Tahlillarga ko'ra, veto huquqi va farmon chiqarish vakolati 95 ta davlatda (73,6 foiz), oliy bosh qo'mondonlik 100 ta davlatda (77,5 foiz), parlamentni tarqatish vakolati 77 ta davlatda (59,7 foiz), favqulodda holatni mustaqil e'lon qilish esa 32 ta davlatda (24,8 foiz) uchraydi.

Shu o'rinda M. Shugart va J. Kerining tadqiqotiga e'tibor qaratish o'rinli, ular yuqorida qayd etilgan vakolatlarni "qonunchilikka taalluqli vakolatlar" (veto, farmon) va "tashkiliy-ijroiya vakolatlari" (parlamentni tarqatish, favqulodda holat, bosh qo'mondonlik) deb tasniflagan (Shugart & Carey, 1992, p. 134). X. Cheybub, Z. Elkins va T. Ginzburg parlamentar konstitutsiyalarning sezilarli qismida veto vakolati, yarim prezidentlik konstitutsiyalarining 87 foizida parlamentni tarqatish vakolati belgilanganini aniqlashgan (Cheybub et al., 2014, p. 21).

S. Skach esa bu masalada shunday fikr bildirgan: "Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari doirasi, ayniqsa, farmon, veto va favqulodda vakolatlar keng bo'lsa va ushbu vakolatlar ustidan konstitutsiyaviy cheklovlar qanchalik kam bo'lsa, demokratik tanglikka moyillik shuncha yuqori bo'ladi" (Skach, 2007, p. 97). Mazkur pozitsiyaga qo'shilamiz, sababi davlat boshlig'i vakolatlarining konstitutsiyaviy cheklovlari – parlamentni tarqatishda sud nazorati, favqulodda holatda parlament tasdig'i kabi mexanizmlar ijro hokimiyatining muvozanatda ishlashini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 111-moddasiga (Republic of Uzbekistan, 2023) muvofiq, Prezident parlamentni tarqatish yuzasidan qarorni Konstitutsiyaviy sud bilan maslahatlashgan holda qabul qiladi. 109-moddaga asosan Prezident favqulodda holatni e'lon qilgandan so'ng uch kun ichida Oliy Majlis palatalari tasdig'ini olishi lozim. Mazkur mexanizmlar mamlakatimiz konstitutsiyaviy tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib, U. Partlettning "bog'liqlik effekti" konsepsiyasiga mos keladi va S. Skachning yuqorida qayd etilgan pozitsiyasini o'zida aks ettiradi (Partlett, 2018, p. 120).

Uchinchi masala – Prezident impichmenti va daxlsizligi. U yoki bu shaklda impichment tartibi belgilangan 110 ta davlat (85,3 foiz) doirasida uch jihat turadi: 44 davlatda (40 foiz) parlamentning o'zi tasdiqlaydi (odatda 2/3 ko'pchilik bilan), 37 davlatda (33,6 foiz) sud organi (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud yoki maxsus tribunal) yakuniy qaror chiqaradi, 29 davlatda (26,4 foiz) parlament va sud birgalikda ishtirok etadi.

Prezident daxlsizligi masalasida 62 ta davlatda (48,1 foiz) to'liq (mutlaq) daxlsizlik, 55 ta davlatda (42,6 foiz) qisman daxlsizlik (faqat lavozim davomida yoki og'ir jinoyatlar uchun), 11 ta davlatda (8,5 foiz) daxlsizlik mavjud emas.

M. Frimanning ta'kidlashicha, impichment inqiroz paytida "xavfsizlik klapani" vazifasini bajarsa-da, oddiy ishonchsizlik votumiga nisbatan ancha keskin va qo'llash qiyinroq chora hisoblanadi (Freeman, 2000, p. 258). R. Martinyuk esa "Superprezidentlik sharoitida Prezidentga nisbatan hech qanday tiyib turish va muvozanatlash vositalarini amalda qo'llash mumkin emas, jumladan, impichment tartibini amalga oshirish deyarli imkonsiz", – deydi (Martyniuk et al., 2023a, p. 133).

O'zbekiston Konstitutsiyasida impichment instituti to'g'ridan to'g'ri belgilanmagan. Biroq 112-moddaga muvofiq, Prezident o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vakolatlari vaqtincha Senat Raisiga yuklatiladi va uch oy ichida yangi saylov o'tkaziladi. 113-moddaga ko'ra, iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi (Republic of Uzbekistan, 2023).

Fikrimizcha, O'zbekiston modeli R. Martinyukning "imkonsiz impichment" tezisidan farqli: bu yerda impichment o'rniga iste'fo va vazifani bajara olmaslik mexanizmi belgilangan, Prezidentning umrbod Senat a'zoliigi esa vakolat almashuvining yumshoq konstitutsiyaviy shaklini ta'minlaydi.

To'rtinchi masala – Bosh vazir instituti va hukumatning hisobdorligi. Konstitutsiyasi tahlil qilingan davlatlarning 86 tasida (66,7 foiz) Bosh vazir (yoki uning muqobil shakli) lavozimi mavjud. 41 ta davlatda (31,8 foiz) Hukumat boshlig'i funksiyasini bevosita Prezident (AQSH, Braziliya, Meksika va b.) yoki Vitse-prezident (Indoneziya, Filippin, Boliviya va b.) bajaradi, 2 ta davlatda (1,6 foiz) (Shveysariya, San-Marino) kollegial ijro tizimi qo'llanadi. Hisobdorlik borasida 28 ta davlatda (21,7 foiz) Hukumat faqat parlament oldida, 22 ta davlatda (17,1 foiz) faqat Prezident oldida, 62 davlatda (48,1 foiz) ham Prezident, ham parlament oldida hisobdor, 17 davlatda (13,2 foiz) Hukumatning aynan kim oldida hisobdorligi Konstitutsiyada to'g'ridan to'g'ri belgilanmagan (Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Italiya va b.), ularda ijro hokimiyati asosan parlament ishonchi mexanizmi orqali nazorat qilinadi.

Ishonchsizlik votumiga kelganda, u 69 ta davlatda (53,5 foiz) mavjud bo'lib, ulardan 61 tasida oddiy shaklda, 8 tasida konstruktiv shaklda (Bosh vazirga ishonchsizlik bildirish uchun yangi Bosh vazir nomzodi taklif etiladi) qo'llanadi. Konstruktiv ishonchsizlik votumi Germaniya, Sloveniya, Polsha kabi davlatlarda mavjud.

Mazkur masalada o'rganilgan ilmiy adabiyotlarda bir necha yondashuvlar kuzatildi. D. Semyuels va M. Shugart Bosh vazirning real mustaqilligi Prezident va parlament o'rtasidagi kuchlar nisbatiga bog'liq ekanini ta'kidlashgan (Samuels & Shugart, 2010, p. 28). T. Sedelius va Mashtaler prezident-parlamentar (aralash, yarim prezidentlik) boshqaruv tizimlarida Hukumatni shakllantirish jarayonida Prezidentning ustuvor pozitsiyaga egaligini qayd etgan. (Sedelius & Mashtaler, 2013, p. 507). R. Elji va S. Myostrup esa ikki taraf lama hisobdorlik sharoitida ijro hokimiyati faoliyatidagi murakkabliklarini tadqiq qilgan (Elgie & Moestrup, 2011, p. 28).

O'zbekiston Konstitutsiyasining 116-moddasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis va Prezident oldida javobgar – bu yuqorida qayd etilgan 62 davlatda uchraydigan ikki taraf lama hisobdorlik modeli.

119-moddaga muvofiq, ishonchsizlik votumi deputatlarning 1/3 tashabbusi va 2/3 ovozi bilan qabul qilinadi (Republic of Uzbekistan, 2023). Mazkur yuqori kvorum Hukumat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Beshinchi masala – Hukumat tarkibini shakllantirishda Prezidentning ishtiroki. Bosh vazir instituti mavjud 86 davlat doirasida 26 ta davlatda (30,2 foiz) Prezident Bosh vazirni mustaqil tayinlaydi, 29 ta davlatda (33,7 foiz) Prezident nomzodni taklif etib, parlament ma'qullaydi, 31 ta davlatda (36 foiz) Bosh vazir parlament ko'pchiligi asosida belgilanadi.

Hukumat tarkibiga kelsak, 57 ta davlatda (44,2 foiz) Hukumat a'zolarini Prezident mustaqil tayinlaydi, 41 ta davlatda (31,8 foiz) Bosh vazir taklifi asosida shakllantiriladi, 8 ta davlatda (6,2 foiz) bu jarayonda Prezident va parlament birgalikda ishtirok etadi, 23 davlatda (17,8 foiz, asosan parlamentar respublikalar) o'zgacha tartib qo'llanadi, Kabinet tarkibi parlament ishonchi asosida shakllantiriladi (Germaniya, Italiya, Shveysariya va b.). Bu shuni ko'rsatadiki, tahlil qilingan davlatlarning aksariyatida Hukumatni shakllantirishda Prezident markaziy mavqeni egallaydi.

M. Shugart va J. Kerining ta'kidlashicha, Hukumatni shakllantirish vakolati Prezidentning ijro hokimiyatidagi real kuchini belgilovchi eng muhim mezonlardan biridir (Shugart & Carey, 1992, p. 153). Shu o'rinda O'zbekiston Konstitutsiyasining 118-moddasiga murojaat etish o'rinlidir (Republic of Uzbekistan, 2023): Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi va deputatlar umumiy sonining yarmidan ko'p ovozi bilan ma'qullanadi. Vazirlar Mahkamasi a'zolari ham ularning nomzodlari Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullanganidan keyin Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi. Fikrimizcha, mazkur konfiguratsiya O'zbekiston modelining o'ziga xos jihatidir: Kabinetni shakllantirishda Prezident hal qiluvchi vakolatga ega bo'lgan holda Bosh vazirning taqdimi instituti ijro hokimiyatining kollegiallik elementini saqlaydi.

Oltinchi masala – Hukumat iste'fosida Prezident ishtiroki. Tahlillar quyidagi manzarani ifodalaydi: Bosh vazir instituti mavjud 86 ta davlatning 44 tasida (51,2 foiz) Bosh vazirning iste'fosi parlament vakolati doirasida, 28 ta davlatda (32,6 foiz) Prezident Bosh vazirni mustaqil lavozimidan ozod etadi, 14 ta davlatda (16,3 foiz) aralash tartib (ham Prezident, ham parlament ishtiroki) qo'llanadi. Hukumat a'zolari vakolatining tugatilishi masalasida esa 48 ta davlatda (37,2 foiz) Prezident ishtiroki belgilangan, 40 ta davlatda (31 foiz) parlament, 26 ta davlatda (20,2 foiz) har ikkala subyekt birgalikda qaror qabul qiladi. U. Partlettning (2018, pp. 103–104) ta'kidlashicha, superprezidentlikda saylangan Prezident qo'lida ikkita muhim vakolat to'plangan: Bosh vazir va Hukumat a'zolarini tayinlash va iste'foga yuborish. R. Elji yarimprezidentlik tizimida Bosh vazirni iste'foga yuborish vakolatining Prezident yoki parlamentda mujassamlashgan boshqaruv tizimini hal qiluvchi mezon deb baholagan (Elgie & Moestrup, 2011, p. 176). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga muvofiq, Bosh vazirni, Hukumatning butun tarkibi yoki muayyan a'zosini lavozimidan ozod etish Prezident vakolati doirasida. Shu bilan birga, 119-moddaga muvofiq, ishonchsizlik votumi natijasida ham Bosh vazir lavozimidan ozod etiladi va Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi iste'foga chiqadi (Republic of Uzbekistan, 2023). Demak, O'zbekiston modelida Hukumat iste'fosi masalasida ham Prezident, ham parlament vakolatlari mustahkamlangan. I. Xamedovning fikriga ko'ra, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar doirasida Qonunchilik palatasiga "ishi qoniqarsiz deb topilgan vazirni ishdan bo'shatishni Prezidentga taklif qilish huquqi" berilgan (Khamedov, 2024, p. 77), bu esa parlament nazoratining yangi shaklini tashkil etadi. Fikrimizcha, O'zbekiston modelida Hukumat iste'fosiga oid vakolatlarning Prezident va parlament o'rtasida taqsimlanishi ijro hokimiyatining barqarorligini ta'minlash bilan birga, demokratik nazorat mexanizmlarini ham mustahkamlaydi.

Yettinchi masala – Hukumatning o'z vakolatlarini soqit qilish tartibi. Tahlillarga ko'ra, 48 ta davlatda (37,2 foiz) Hukumat yangi saylangan Prezident oldida, 53 ta davlatda (41,1 foiz) yangi saylangan parlament (uning muayyan palatasi yoki kollegial organ) oldida, 26 ta davlatda (20,2 foiz)

ham Prezident, ham parlament oldida vakolatlarini soqit qiladi, qolgan 2 ta davlatda (1,6 foiz) bunday tartib nazarda tutilmagan.

Mazkur masalada R. Martinyuk va O. Datsyuk shunday fikrda: “Hukumatning yangi saylangan Prezident oldida vakolatlarini topshirishi aslida uning Prezidentga tobeligi va boshqariluvchanligini isbotlaydi” (Martyniuk et al., 2023a, p. 61). A. Frustorfer va J. Passarelli esa: “Hukumatning parlament oldidagi hisobdorligi parlamentarizmni prezidentlikdan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir”, – deb ta’kidlashgan (Fruhstorfer & Passarelli, 2020, p. 6).

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 116-moddasiga muvofiq, amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi (Republic of Uzbekistan, 2023). Fikrimizcha, mazkur tartib R. Martinyukning “Prezidentga tobelik” tezisidan farqli o‘laroq, O‘zbekiston modelida Hukumatning parlament oldidagi demokratik mandatga bog‘liqligini ifodalaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 118-moddasida Prezidentning Bosh vazirni va Vazirlar Mahkamasi butun tarkibini iste’foga chiqarish vakolati ham belgilangan, bu esa Prezident va parlament vakolatlarining muvozanatli taqsimlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqotning natijasi sifatida davlat boshqaruvi shaklini belgilab beruvchi mezonlarni aniqlash ham maqsad qilingan. 129 ta davlat konstitutsiyasining o‘zaro qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiq etilgan mezonlar orasida quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan 10 tasi davlat boshqaruvining real shaklini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jadval

Davlat boshqaruvining real shaklini belgilashda muhim mezonlar

№	Mezon	Prezidentlik	Yarim prezidentlik	Parlamentar	O‘zbekiston
1	Prezident saylovi	Bevosita xalq	Bevosita xalq	Parlament	Bevosita xalq (106-m.)
2	Ijro hokimiyati markazi	Prezident	Prezident / Bosh vazir	Bosh vazir	Prezident / Bosh vazir (109, 114-m.)
3	Prezident vakolatlari	Keng	Keng	Nominal	Keng: veto, farmon va b. (109-m)
4	Bosh vazirni tayinlash	Mavjud emas	Prezident taklifi	Parlament	Prezident / Qonunchilik palatasi (118-m.)
5	Ishonchsizlik votumi	Yo‘q	Mavjud	Mavjud	Mavjud – 2/3 (119-m.)
6	Hukumat hisobdorligi	Prezident	Ikki taraflama	Parlament	Ikki taraflama (116-m.)
7	Parlament tarqatish	Yo‘q	Mavjud	Mavjud	Konstitutsiyaviy sud bilan (111-m.)
8	Hukumatni shakllantirish	Prezident	Bosh vazir taklifi	Parlament	Qonunchilik palatasi / Prezident (118-m.)
9	Hukumat iste’fosi	Prezident	Aralash	Parlament	Prezident / Oliy Majlis (118-119-m.)
10	Hukumat vakolatini soqit qilishi	Prezident oldida	Aralash	Parlament oldida	Oliy Majlis oldida (116-m.)

Tahlil natijalari asosida Prezident va Hukumat munosabatlarining e'tiborni jalb qiladigan paradoksi mavjudligi aniqlandi. Xususan, davlat boshqaruvining prezidentlik shakliga nisbatan yarim prezidentlik shaklida amalda davlat boshlig'ining vakolatlari va ta'sir vositalari hamda imkoniyatlari kengroq. Ya'ni formal cheklovlari ko'proq bo'lgan tizimda Prezident amalda kuchliroq, degan xulosaga kelishga asos mavjud. Mazkur masalada ilmiy adabiyotlarda quyidagi yondashuvlar mavjud: X. Linz prezidentlik boshqaruv shaklining parlamentarga nisbatan institutsional jihatdan keskinlikka moyil ekanligini qayd etgan (Linz, 1990, p. 51). R. Elji yarimpresidentlikning "prezident-parlamentar" toifasi hukumatning ikki taraflama hisobdorligi sharoitida murakkabliklarga ega ekanini ko'rsatib bergan (Elgie & Moestrup, 2011, p. 28). X. Cheybub davlat boshqaruvining shakli emas, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan pozitsiyani ilgari surgan (Cheybub, 2007, p. 164). U. Partlett (2018, p. 103) esa postsovet davlatlari doirasidagi tadqiqoti asosida: "Ustunlik qiluvchi boshqaruv shakli yarimpresidentlik emas, balki to'rtinchi toifa superprezidentlikdir", deb ta'kidlaydi.

Fikrimizcha, davlat boshqaruvi shakli qat'iy mustahkamlab qo'yilgan aqida emas, balki har bir davlatning o'ziga xosligi, aholining huquqiy ongi, mamlakatdagi siyosiy va mafkuraviy tizim hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar Prezidentning hokimiyat tarmoqlari bilan munosabatlariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Xulosa

Demak, xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining Prezident va Hukumat munosabatlari kontekstida taqqoslama tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, zamonaviy konstitutsiyaviy amaliyotda "toza" boshqaruv shakllari istisno holatga aylanmoqda. Davlatlarning deyarli yarmida hukumatning ikki taraflama hisobdorligi mavjud, Hukumat vakolatlarini soqit qilish tartibida ham Prezident, ham parlament ishtiroki ortib bormoqda. Bu prezidentlik va parlamentarizm o'rtasidagi an'anaviy chegaralarning susayishini ko'rsatadi;

ikkinchidan, Lotin Amerikasi AQSH ta'sirida prezidentlik shakliga moyil, ya'ni 4-yillik vakolat muddati va parlamentsiz Hukumatni shakllantirish xususiyatiga ega. Yevropa davlatlari, aksincha, parlamentar an'analarni saqlab, Prezidentga nominal mavqe bergan holda Bosh vazir institutini kuchaytirgan. Markaziy Osiyo davlatlari uchun Prezidentning 7 yillik vakolat muddati va keng vakolatlar doirasi – bu mintaqaviy konstitutsiyaviy madaniyatning o'ziga xosligidir. Afrika davlatlarida esa mustamlakachilik davrining institutsional ta'siri zamonaviy konstitutsiyaviy islohotlar bilan uyg'unlashmoqda;

uchinchidan, davlat boshqaruvining prezidentlik shakli ijro hokimiyatining barqarorligi va qaror qabul qilish tezligini ta'minlashda, vakolatlarning bir shaxsda to'planishi hamda parlament nazoratining zaifligi xavfini tug'diradi. Parlamentar shakl demokratik hisobdorlikni kuchaytiradi, biroq koalitsion hukumatlarning zaifligi va siyosiy barqarorsizlik xavfi mavjud. Yarimpresident shakli ikkala modelning afzalliklarini birlashtirishga intilsa-da, tadqiqotda aniqlangan paradoks shuni ko'rsatadiki, Bosh vazir institutining mavjudligi Prezident vakolatlarini cheklamaydi;

to'rtinchidan, postsovet davlatlarini "superprezidentlik" deb umumlashtirish ilmiy jihatdan to'g'ri emas, taqqoslama tahlil shuni ko'rsatdiki, bu mintaqadagi davlatlar o'rtasida ham sezilarli farqlar mavjud: O'zbekiston va Qirg'iziston parlament nazoratini kuchaytirish yo'lidan borsa, boshqa davlatlarda Prezident vakolatlarining markazlashuvi davom etmoqda;

beshinchidan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga asosan mamlakatimizning boshqaruv modeli uch klassik tizimning hech biriga to'liq mos kelmaydigan, har birining ijobiy jihatlari o'zida mujassamlashtirgan konfiguratsiyaga ega bo'lib, Prezidentning keng vakolatlari ijro samaradorligini, Qonunchilik palatasining ma'qullash vakolati va ishonchsizlik votumining yuqori kvorumi (2/3) esa ham demokratik nazoratni, ham Hukumat barqarorligini bir vaqtda ta'minlashga qaratilgan.

REFERENCES

- Cheibub, J. A. (2007). *Presidentialism, parliamentarism, and democracy*. Cambridge University Press.
- Cheibub, J. A., Elkins, Z., & Ginsburg, T. (2014). Beyond presidentialism and parliamentarism. *British Journal of Political Science*, 44(3), 515–544.
- Cornell, S. E. (Ed.). (2022). *Constitutional reform in Uzbekistan: A symposium*. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program.
- Elgie, R., & Moestrup, S. (2011). *Semi-presidentialism: Sub-types and democratic performance*. Oxford University Press.
- Freeman, M. (2000). Constitutional framework and fragile democracies. *The International Journal of the Humanities*, 1(2), 251–265.
- Fruhstorfer, A., & Passarelli, G. (2020). President and assemblies – 25 years after. *Government and Opposition*, 55(1), 1–6.
- Gulyamov, S. S. (2025). Konstitutsionnye preobrazovaniya v Uzbekistane (1992–2023) [Constitutional transformations in Uzbekistan (1992–2023)]. *Bulletin of the Institute of Law of the Bashkir State University*, (4), 88–101.
- Khamedov, I. A. (2024). National and international vectors of the constitutional reform in Uzbekistan. *European and Asian Law Review*, 7(1), 74–80.
- Linz, J. J. (1990). The perils of presidentialism. *Journal of Democracy*, 1(1), 51–69.
- Martyniuk, R., Datsiuk, O., Romanov, M., & Irkha, Y. (2023b). Does a ‘super-presidency’ exist in a semi-presidential system? *Constitutional Law Review*, (2), 125–137.
- Martyniuk, R., Datsiuk, O., Romanov, M., & Khomych, T. (2023a). Post-Soviet super-presidentialism: Variations on a theme. *Constitutional Law Review*, (4), 53–65.
- Partlett, W. (2018). Postsovetskoe superprezidentstvo [Post-Soviet super-presidentialism]. *Comparative Constitutional Review*, 27(3), 103–123.
- Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6445145>
- Samuels, D., & Shugart, M. S. (2010). *Presidents, parties, and prime ministers*. Cambridge University Press.
- Sartori, G. (1997). *Comparative constitutional engineering*. NYU Press.
- Sedelius, T., & Mashtaler, O. (2013). Two decades of semi-presidentialism. *East European Politics*, 29(2), 109–134.
- Shugart, M. S., & Carey, J. M. (1992). *Presidents and assemblies*. Cambridge University Press.
- Skach, C. (2007). The “newest” separation of powers: Semipresidentialism. *International Journal of Constitutional Law*, 5(1), 93–121.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.